

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALAR BADIY ASARLARNI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANTIRISH.

*Andijon davlat pedagogika institutini 1-bosqich talabasi
Abduqaxxorova Marjona Dilshodbek qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lif tarbiyasidaularni estetik jihatdan tarbiyalashda badiiy adabiyotining o'rni va ahamiyatini, shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqining o'sishida bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlar hamda shakllarini tahlil qilishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, badiiy adabiyot, xalq ogzaki ijodi, proza, illyustrasiya, axloqiy-epik, axloqiy-estetik.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlashda badiiy so'z katta o'rinni tutadi. Bolalar xalq ertaklari, she'r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko'radilar. Bolalar adabiyoti, avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtida bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Buyuk rus demokratik V.G. Belinskiy bolalar kitobi tarbiya uchun yoziladi, "Tarbiya -buyuk ish, u insonning taqdirini hal qiladi" -degan edi. Bundan tashqari xalq og'zaki ijodi - ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo'shiqlarning ko'plari uzoq o'tmishda v hoziridan tubdan farq qiladigan voqeysligidan tubdan farq qiladigon turmush sharoitida yaratilgan xalq ijodi asarlarida faqat tarbiya vazifalariga javob beradiganlari tanlab olinadi. Aql-idroki yoki jasurligi bilan sabr-toqati yoki mehnati bilan har qanday qiyinchiliklarni yengadigon dovyurak, vijdonli qahramonlar ishtirok etadigan ertaklardan bolalar judda hayratlanadilar, bunday ertaklar bolalarning ijobiy qahramonlarga nihoyatda hayrihox bo'lishga, yovuzlikka, nohaqlikka, qizg'anchiqlikka, makr-xiyлага nisbatan murosasiz bo'lishga majbur etadi. Bolalar kitobi bolaga tushinarli bo'lgan, uning aqli va qalbiga yetib borgan, ya'ni bola yozuvchining hikoya qilayotgan narsasini tushinadi hamda his eta olgan taqdirdagina u o'zining tarbiyaviy rolini bajaradi. Tarbiyachilar bolalarning asarlar haqidagi bilimlarini mustahkamlab borishi uchun oldingi yosh guruqlarida ularning qaysi asarlar bilan tanishganlarini bilishlari kerak. Badiiy adabiyot va nutqni rivojlantirish mashg'uloti davomida ko'pgina uslubiy texnikalarni maqsadi matnni tinglash va tushinish jarayonini yengillashtirishni, bolalar tomonidan asarni eslab qolishga yordam berishni ko'zda tutmog'i lozim. Shuning uchun ifodali o'qish pedagogdan dastlabki tayyorgarlikni talab qiladi. Dastlabki tayyorgarlikka asarni tahlil qilish, mag'zini chaqish, ichida va ovoz chiqarib o'qishmashiqlari kiradi. Hamma tayyor bo'lganidan so'ng sahna ko'rinishi boshlandi. Bolalar badiiy asarlardan estetik va

axloqiy tasvvur oladilar.Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish ularni yosh imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish va adabiy asarlarni qabul qila olish darajasini hisobga olgan holda o'tkazish zarur.Maktabgacha yosh davrida ertak va hikoyalarni ko'p eshitgan bolaning nutqi ravon, fikrlashi tiniq,xayolot olami cheksiz bo'ladi.O'zbek xalq ertaklaridan tashqari rus xalq va mamlakatimizdagi boshqa xalqlar ertaklari ham bolalarga o'qib beriladigan ertakar jumlasiga kiradi.Rus mumtoz adabiyoti namoyondalaridan A.S .Pushkin, N.A.Nekrasov,L.N.Tolstoy,K.D.Ushinskiy va boshqalarning asarlari bolalarga o'qib berish dasturga kiritilgan.O'zbek yozuvchilari, shoirlari bolalar uchun judda ko'p ajoyib asarlar yaratgan.Bu G'.G'ulom, N.Orifjonov, I.Muslim, P Mo'min, SH.Sa'dulla, Q.Hikmat, Q.Muhammadiy va boshqalarning asarlari-bolalarga o'qib beriladigan asarlarning eng boy manbasi hisoblanadi.Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga bag'ishlangan adabiyot ro'yxatidan rus yozuvchilari va shoirlari V.Mayakovskiy, A.Kononov, S.Mixalkov va boshqalarning tarjima qilgan asarlari keng o'rinni olgan.Ilk yoshda bolalar bilan foydalanishga tavsiya etiladigan kitoblar o'lchami kattaroq muqovasi qalinroq suratlari,yirik va yorqin matn qisqa va qiziqarli bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.Ularga tavsiya etiladigan asosan kichik hajmli she'rlar, qisqa ertaklar bo'lishi mumkin.Mazmunan esa,birmuncha sodda asosan hayvonlar haqida syujetlar orqali bolaga tushinarli bo'lgan voqeа-xodisa aks ettiriladi. 3-4 yoshli bolaning kitobining o'lchovi birmuncha katta, asarlar mazmuni ancha keygaygan.Bu yoshda bolalarga qisqaroq ertak o'qib berish va mavzuga oid rasm tasvirlar ko'rsatilishi lozim.4-5yoshli bolaning kitobi asosan rangli suratlarga boy kitob ihcham, matn qisqa bo'lgan maqul. Katta maktabgacha yoshga kelib asararni hajmi ancha katta bolalar bilan suxbat o'tkazishga ancha,qulay bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Abdurahimova D Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagagi bolalarni ma'muriy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish.Ped fak dok Avtoref,-Toshkent 2020.
2. Abdurahimova D A Maktabgacha yoshdagagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq o'yinlaridan foydalanish. Bola va zamon ilmiy ommabop jurnal-T:2020.
3. Babayeva.D.R Tevarak -atrofni o'rganishda maktabgacha yoshdagagi bolalarning boglanishli nutqini rivojlantirish Diss ped fan nom T:2001-156b